

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI
JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTGA JALB QILISHDA
MUSOBAQALARING O'RNI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lif mifiktablarida o'quvchilarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb qilishda musobaqalarning o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy sport, jismoniy tarbiya, sport turlari, yengil atletika, jismoniy tarbiya me'yorlari.

*O'zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sport universiteti Farg'ona Filiali
Ko'pkurash sport turlari nazaryasi va uslubyati kafedrasi o'qituchilarini*

Davlatov Davlatjon Negmatullo o'g'li

Nosirov Sardorjon To'lqinjon o'g'li

Raximov Farhod Maxmudovich

Tojimamatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li

Raxmonova Mohinur Rasulovna

Toirov Fazliddin Raximjon o'g'li

**THE ROLE OF COMPETITIONS IN ATTRACTING STUDENTS TO
PHYSICAL CULTURE AND MASS SPORTS IN GENERAL SECONDARY
SCHOOLS**

Fergana Branch of the State University of Physical Education and Sports of
Uzbekistan Department of Theory and Methods of Multi-Sports teachers

Davlatov Davlatjon Negmatullo oglu

Nosirov Sardorjon To'lqinjon oglu

Rakhimov Farhod Makhmudovich

Tojimamatov Oybekjon Dilmurodjon oglu

Rakhmonova Mohinur Rasulovna

Toirov Fazliddin Rakhimjon oglu

Abstract: This article discusses the role of competitions in attracting students to physical education and mass sports in general secondary schools.

Keywords: mass sport, physical culture, sport categories, light athletics, physical culture norms.

РОЛЬ СОРЕВНОВАНИЙ В ПРИВЛЕЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ К ЗАНЯТИЯМ ФИЗКУЛЬТУРОЙ И МАССОВЫМ СПОРТОМ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Ферганский филиал Узбекского государственного университета

физического воспитания и спорта

Кафедра теории и методики мультиспортивного спорта учителя

Давлатов Давлатджон Негматулла углы.

Носиров Сардорджон Толкинджон углы.

Рахимов Фарход Махмудович

Тожимаматов Ойбекжон Дилмуроджон углы

Рахмонова Мохинур Расуловна.

Тоирев Фазлиддин Рахимжон углы.

Аннотация: В данной статье говорится о роли соревнований в привлечении учащихся к занятиям физической культурой и массовым спортом в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: массовый спорт, физическая культура, спортивные разряды, легкая атлетика, нормативы физкультуры.

Dolzarbligi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda, jismoniy tarbiya va ommaviy sport faol rivojlanmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biridir [1, 2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni hamda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni bu masalani davlat ahamiyatiga molik ekanligini belgilab bergan. Lekin hozirgi kunda, jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan bir qator muammolar mavjud, ular:

- Muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga aholining yetarli darajada ishtirok etmasligi;
- Jismoniy tarbiya va sport sog‘lom turmush tarzining asosi ekanligi haqidagi targ‘ibot yetarli emasligi; So‘nggi yillarda amaliyotga joriy etilayotgan me’yoriy hujjatlarda ommaviy sportni rivojlantirishga juda katta e’tibor berilganligin aloxida takidlab o‘tishimiz lozim. Jumladan ustivor vazifalar qatorida quyidagilar mavjud:
 - Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga aholining turli qatlamlarini jalb qilish;
 - Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug‘ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;
 - Aholi salomatligini yaxshilash maqsadida turli sport turlari bilan ommaviy shug‘ullanishni tashkil etish va musobaqalar o‘tkazish;
 - Bolalar, o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish;
 - Aholi soni va uy-joylarning joylashuvini inobatga olgan holda, shuningdek, tashkilot va idoralarning tegishli hududlarida velosiped turar joylari va zamonaviy sport (shu jumladan, Workout) maydonchalarini tashkil etish;
 - Mahallalar, qishloqlar, tumanlar va shaharlarni bog‘lovchi avtomobil yo‘llari, piyoda hamda velosiped yurishi uchun mo‘ljallangan “Salomatlik yo‘laklari”ni qurish;
 - Avtomobil harakati yuqori bo‘lgan va katta yo‘l kesishmalarida aholiga qulay o‘tish joylarini barpo etish [1, 2].

Bugungi kunda sport maktablarining zamonaviy o‘qitish tizimida ham o‘zining mustaxkam o‘rniga ega. Bunga maktablardagi turli jixozlar bilan qurilayotgan sport inshootlari, sport va ko‘ngilochar markazlar, kup funksiyali sport maydonlari misol bo‘la oladi. Hozirgi vaqtda ommaviy sportni rivojlantirishda yangicha yondashuv bu jamoatchilik xamkorligi hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar ko‘plab musobaqalarga qatnashadilar. Ammo tadqiqot natijalarimizga ko‘ra barcha musobaqalarga xar

doinm deyarli bir xil o‘quvchilar qayta-qayta borishadi. (maktab o‘quvchilari umumiy sonining 10%), ularning 90% sport seksiyalarida shug‘ullanishadi. Qolgan maktab o‘quvchilari uchun jismoniy faoliy va rivojlanishning pastligi muammoligicha qolmoqda. Professor M.S. Axmatov o‘z maqolasida quyidagi fikrlarni keltirgan: “Mamlakatizmizda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanayotganlar kamayib borayotganligiga etibor bering, bir qancha yillar oldin odamlar sport bilan ommaviy shug‘ullanishgan jismoniy va aqliy balansni his qilishgan, hozir esa nimjonlashib kasalmand bo‘lib borishayabdi”[3].

Sport mashg‘ulotlarining yuqori emotsiyal jozibadorigi va pedagogik samaradorligi uning jismoniy tarbiyada qo‘llanilishining muxim asosidir [3].

Xozirgi vaqtida maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya va sportga qiziqishini shakllantirish muammosini hal qilish va bu qiziqishning shakllanish yo‘llari, vositalari va usullarini ilmiy asoslash bo‘yicha faol izlanishlar olib borilmoqda. Maktab o‘quvchilarida sportga bo‘lgan doimiy qiziqishni shakllantirishning asosiy usullari, yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini va ularning motivatsion sohasini hisobga olgan holda individual yondashuv usullari sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Qiziqishning psixologik asosini esa o‘quvchining ichki motivatsiyasi tashkil etadi. O‘quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga faol qiziqishni samarali shakllantirish uchun, biz jismoniy tarbiya darslari davomida, o‘quvchilardan jismoniy tarbiya darslari yugurish me’yorlarini musobaqa faoliyatida olib bordik. G‘oliblar mакtabning maxsus tablosiga ismi sharifi kiritib qo‘yildi. Razryad me’yorlarini bajargan o‘quvchilarga, 3, 2, 1, sport razryadlari berildi.

Maqsad. Maktab o‘quvchilarini musobaqa faoliyati elementlaridan foydalaniib, ommaviy tarzda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishlarini oshirish.

Tadqiqot vazifalari.

- ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va taxlil qilish;
- qo‘llanilgan amaliy ishlar samaradorligini olingan natijalar orqali asoslab berish. Tadqiqot usullari va tashkil etilishi. Tadqiqot Toshkent viloyati Chirchiq

shahridagi ikkita umumtalim maktabining oltinchi va yettinchi sinflarida olib borildi. Bir yil davomida, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning jismoniy tarbiya maktab standartida belgilangan jismoniy me’yorlar shaxsiy va jamoaviy chempionat sifatida musobaqa nizomi asosida, yengil atletika (yugurish) musobaqasi sharoitida o‘tkazildi. G‘oliblar maktabning maxsus tablosiga ismi sharifi kiritib qo‘yildi. Razryad me’yorlarini bajargan o‘quvchilarga Yengil atletika federatsiyasi bilan hamkorlikda, O‘zbekistonda amaldagi yagona sport tasnifi asosida 3, 2, 1, sport razryadlari berildi. Bundan tashqari Yengil atletika federatsiyasi sport turlari bo‘yicha seleksiya ishlarini amalga oshirdi. Ikkala guruhda ham yengil atletika sport turlari bo‘yicha, sport razryadi bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash uchun, tajriba boshida va oxirida so‘rovnama o‘tkazildi. Uch bosqichli tajriba dinamikasida tajriba va nazorat guruhi o‘rtasidagi natijalar o‘zgarishi quyidagicha sodir bo‘ldi.

I-Jadval

2-Sport razryadlarini bajarish dinamikasi

D avrlar Guruhlar	<i>Tajribadan oldin son (%)</i>		<i>Tajribadan keyin son (%)</i>	
	<i>Jami razryadlar</i>	<i>Shundan yengil atletika bo ‘yicha</i>	<i>Jami razryadlar</i>	<i>Shundan yengil atletika bo ‘yicha</i>
<i>Nazorat guruhi n=90</i>	<i>8 (9%)</i>	<i>4 (4%)</i>	<i>11 (12%)</i>	<i>6 (6%)</i>
<i>Tajriba guruhi n=92</i>	<i>7 (8%)</i>	<i>5 (5%)</i>	<i>34 (37%)</i>	<i>26 (28%)</i>

Sport razryadlarini bajarish dinamikasi

Tajribadan oldin o‘tkazilgan so‘rovnama natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikkala guruhdagi maktab o‘quvchilari sport bilan shug‘ullanuvchilar soni kamchilikni tashkil etdi. Atigi 9 % sport razryadiga ega. Solishtirish uchun yengil atletika sport turidan razryad olgan sportchilarning ham malumotlarini oldik. Anketa tahlili shuni ko‘rsatdiki nazorat guruhidagi maktab o‘quvchilarining atigi 10 foizi, tajriba

guruhining 12 foizi turli sport seksiyalarida shug‘ullanishgan. Ikkala guruh maktab o‘quvchilarining 80% hech qachon musobaqada qatnashmagan.

Diagramma 2




Diagramma 2





Diagramma 3

Tajirba davrida maktab o‘quvchilarining sport razryadlarini o‘zgarish dinamikasi



Tajriba oxiriga kelib sport turlari razryadga ega o‘quvchilar foizi 37 gacha oshdi, yengil atletika bo‘yicha razryadga ega o‘quvchilar esa 28 % oshdi. Sport seksiyalarida shug‘ullanuvchi o‘quvchilar soni esa 23 nafarga oshdi. Tajribaning boshida o‘rtasida va oxirida maktab o‘quvchilari tomonidan sport razryadlarining bajarilishi makkablarda o‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan munosabatini sifat jihatidan ham miqdor jihatidan ham ijobiy dinamikasi ko‘rinib turibdi. Jismoniy tarbiya darslarida o‘zlarini sportchi kabi his qilib tajriba guruhi o‘quvchilarining 17% sport seksiyalariga yozilishdi. Olingan test natijalari shuni ko‘rsatdiki yuqori emotsiyal jozibadorlik va sport faoliyatining pedagogik samaradorligi uni jismoniy tarbiyada qo‘llashning muhim asosidir. Bu metodikaning umumta’lim makkablarida qo‘llanishi ommaviy bolalar sportining paydo bo‘lishiga, sport razryadchilari sonini ko‘payishiga olib keladi va shu bilan birga maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya, sport, sog‘lom turmush tarziga qiziqishini oshiradi.

XULOSA

Mazkur o‘tkazilgan tadqiqot ishini olib borish davomida mavzuga doiradabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida aniqlandiki, umumiyl o‘rtatilmaktablarida o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalgan

qilishda musobaqalarning tutgan o‘rnini o‘rganilmaganligi va maxsus usul va vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq ma’lumotlar ushbu masalani yetarlicha ochib bera olmaydi. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb qilishda musobaqalarning o‘rnini, amalda bajarilgan ishlar samaradorligi sifatida, yengil atletika turida bir necha sport razryad-larining olinganligi va doimiy shug‘ullanuvchilar sonini sezlarli darajada ortganligini asos sifatida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Umumiyl xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ushbu tadqiqot o‘zini ijobiy olingan natijalar bilan oqladi. Ushbu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda, ilg‘or xorijiy adabiyotlar va amaliy tajribalarni o‘rganish va o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb qilish ishlarini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF–6099–son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF–5924–son Farmoni.
3. Holistic National System of Mass Sports and Recreation Work M. Akhmatov Eastern European Scientific Journal № 1, 2018.
4. Modernizatsiya fizicheskogo vospitaniya i fizkulturno-sportivnoy raboty v obshcheobrazovatelnoy shkole. V.I. Stolyarov, V.K. Balsevich, V.P. Mochyonov, L.I. Lubysheva. M.: Teoriya i praktika fiz. kult., 2009. – S. 320.
5. Носиров, С. (2024). Отбор пловцов в многолетнюю систему подготовки и направлени. Research and Implementation, 444-449.
6. Носиров, С. (2024). Значение плавания в воспитании здорового поколения. Research and Implementation, 450-455
7. Ниязова, Р. Р., & Носиров, С. Т. (2023). Методические особенности совершенствование скоростно-силовых качеств в плавании. Oriental Art and Culture, 4(5), 410-415.